

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

REFERAT

4-48 –guruh talabasi Matmusayev Zarif

Mavzu: Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri.

GULISTON 2013

Reja:

1. Kirish
2. Asosiy qism.
 - 2.1. Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirining asosiy bosqichlari
 - 2.2. Muhandislik inshootlari va ularning turlari.
 - 2.3. Ekologik muvozanat va uning buzilishi.
 - 2.4. Insoniyatning global muammolari.
3. Xulosa.

Kirish.

Insoniyat o'z hayoti davomida ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy narsalarning barchasini tabiatdan oladi. U tabiat bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi turli-turli vaqtlarda va joylarda turlicha bo'lgan. Bu ta'sir natijasidagi o'zgarishlarni tahlil va tadqiq qilish natijasida tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri qanchalik maqsadga muvofiqligi yoki aksincha bo'lishi bilish mumkin. Inson faoliyati maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa tabiatdan oqilona foydalanish shu joy, hudud, o'kaning yashnashiga olib kelgan. Aks holdagi ta'sir esa noqulay sharoitning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Insoniyat tarixi davomida uning tabiat bilan bo'lgan munosabati doimo o'zganib, murakkablashib borgan.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'siri besh bosqichga bo'lish mumkin.

1. Termachilik, ovchilik va baliqchilik bosqichi. Bundan 30 000 yil avval boshlangan. Ushbu davrda odam termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun mazkur bosqich termachilik, ovchilik va baliqchilik bosqichi deb ataladi. Ibtidoiy odamni iqlimi qulay, biologik resurslarga boy (yirik hayvonlar, mevalar) joylar ko'proq qiziqtirgan. Bu bosqichda inson tabiatni o'zgartirmagan, balki unga moslashgan.
2. Qishloq xo'jalik inqilobi bosqichi. Bundan 6-8 ming yil ilgari sodir bo'lgan ushbu davrda odam ovchilik va baliqchilikdan dehqonchilikka o'tgan. Tabiiy lanshaftlarning kuchsiz o'rganishi ro'y bera boshlagan.
3. O'rta asrlar bosqichi. Bu davrda insonning tabiatga bo'lgan ta'siri kuchaya borgan, hunarmandchilik rivojlangan, xo'jalikda tabiiy

boyliklar keng qo'llanila boshlagan. Dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan, ammo ular asosan qo'l kuchiga asoslanganligi uchun ekologik muvozanatga ta'sir etmagan.

4. Sanoat inqilobi bosqichi. Bu davr bundan 300 yil avval ro'y berdi. Jamiyatning tabiatga ta'siri kuchaydi. Tabiiy lanshaftlar tez sur'atlarda o'zgara boshlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli boshqa qit'alar ham o'zlashtirila boshlandi. Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Fransiya davlatlari tomonidan ulkan mustamlakalar imperiyalar vujudga keltirildi. Sanoat rivojlangani sayin jamiyatning tabiatga orta boshlandi

5. Fan-texnika inqilobi bosqichi. Bu XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan tabiiy resurslar juda kata miqyosda o'zlashtirila boshlandi. Katta kata hududlar qishloq xo'jaligi maqsadida o'zlastirildi, ulkan zavodlar qurildi, cho'llar, shimoliy hududlar, tog'lar hamda Dunyo okeani o'zlashtirildi va ekologik muvozanat buzila boshladi. Natijada umumsayyoraviy ekologik muammolar vujudga keldi.

Muhandislik inshootlari va ularning turlari. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosan muhandislik inshootlari va ularning ish faoliyati orqali ro'y beradi.

Har qanday jamiyatda ham xo'jalikni rivojlantirish va jamiyat a'zolarini qondirish maqsadida uy-joy, yo'l, zavod-fabrika va boshqa inshootlar quriladi.

Ma'lum bir maqsadlarda qurilgan binolar *muhandislik inshootlari* deb ataladi. Muhandislik inshootlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

Shaharsozlik inshootlari. Mazkur inshootlarga ma'muriy binolar uy-joy binolari, komunal xo'jalik binolari, maishiy xizmat binolari, so'g'liqni saqlash, maorif va moliya binolari kiradi. Uy-joy binolari shaharlarda ko'p qavatli, qishloqlarda asosan bir qavatli binolardan iborat.

Sanoat inshootlari. Bularga tog'-kon sanoati inshootlari, metallurgiya sanoati inshootlari, yengil sanoati inshootlari, yoqilg'i-energetika sanoati inshootlari, mashinasozlik sanoati inshootlari, qurilish sanoati inshootlari, oziq-ovqat sanoati inshootlari kiradi.

Tog'-kon sanoati inshootlariga karyerlar, shaxtalar, tashlamalar, ma'muriy binolar, boyitish fabrikalari, tog'-metallurgiya kombinati kiradi.

Metallurgiya sanoati inshootlariga asosan qora va rangli metallurgiya zavodlari binolari kiradi. Ularning maydoni katta va chiqindilar hajmi ham yirik bo'ladi.

Kimyo sanoati inshootlari mineral og'it, kislota, sun'iy tola ishlab chiqaradigan zavodlar binolaridan iborat.

Yoqilg'i-energetika sanoati inshootlariga neft va gazni qayta ishlash zavodlari, issiqlik elektrostansiyalari va markazlari binolari kiradi.

Mashinasozlik sanoati inshootlari asosan podshipnik, stanoksozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, teplovozsozlik, vagonsozlik zavodlari binolaridan iborat.

Yengil sanoat inshootlari asosan to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi zavodlar va fabrikalar binolaridan iborat.

Transport inshootlari yo'llardan, ko'priklardan, tunellardan, vokzallar, aeroport va portlardan iborat.

Suv (gidrotexnik) inshootlar to'g'onlar, suv omborlari, kanallar, kollektorlardan iborat.

Mazkur inshootlarning qurilishi va faoliyati ta'sirida atrof-muhitda salbiy yoki ijobiy o'zgarishlar vujudga keladi.

Ekologik muvozanat va uning buzilishi.

Tabiat resurslari chegaralangan bo'lib, unga zarar yetkazmaslik va ulardan me'yorida, ehtiyojga yarasha foydalanish lozim. Agar tabiat resurslaridan me'yoridan ortiqcha foydalanilsa, tabiiy resurslarning qayta tiklanish qobiliyati susayib ketadi va ekologik muvozanat buziladi.

Tabiatda barcha tabiiy komponent va komplekslar bir-biri bilan o'zaro muvozanatda bo'ladi. Har bir hududda relyef, yer osti va yer usti suvlari, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zaro aloqada.

Chunki tabiat mintaqalaridan u yoki bu joylarida har bir relyef turi va shakliga ma'lum iqlim turi va sharoiti, yer osti va usti suvlari

me'yori, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining aniq turlari mos keladi. Demak, tabiatda barcha komponentlar har bir hududda bir-biri bilan o'ziga xos moslashuv hamda aloqadorlik vujudga keltirgan va shu zaylda bir necha yuz ming yillardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Binobarin, tabiat komponentlari orasida tabiiy muvozanat mavjud bo'lganligi sababli, har bir joy yoki hudud ma'lum bir yo'nalishda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi.

Har bir tabiat kompleksi ma'lum miqdordagi tabiiy boylikka ega. Agar mazkur boylikdan rejali foydalanish yo'lga qo'yilmasa, ekologik muvozanat buzila boshlaydi. Buning oqibatida tabiat qashshoqlashadi, tuproqlar sho'rlanadi, yerning hosildorligi pasayadi, suvlar ifloslanadi va ichishga yaramay qoladi, tiklanadigan tabiiy resurslar qayta tiklanmaydi.

Tog' yonbag'irlarida sug'oriladigan va iaimi dehqonchilik, bog'dorchilik hamda yaylov chorvachiligi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelishi. Mahalliy aholi har bir soy vodiysi yoki yonbag'irlarning dehqonchilik, chorva

mollarini boqish, pichan tayyorlash uchun qanchalik tabiiy boyliklarga ega ekanligini juda yaxshi biladi. Tog'larda o'tin tayyorlash maqsadida mavjud daraxtlar qirqiladi, oqibatda ular ostidagi o'tlar va butalar ham zarar ko'radi. Tuproqning yuzasi ochilib, u yo'g'in-sochin ta'sirida eroziyaga uchraydi.

Avval, yuzalama eroziya, so'ngra chuqurlatish eroziya yuz berib, vaqt o'tish bilan tuproning ustki qismi butunlay yuvilib keladi. Natijada xo'jalikda foydalaniladigan yer va yaylovlar maydoni qisqaradi.

Shu sababli, har bir joyning tabiiy resurslari (tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, suvlari, foydali qazilmalari)dan maqsadga muvofiq foydalanilsa, ekologik muvozanat buzilmaydi.

Insoniyatning global muammolari. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar vujudga keldiki, ularning asosiy qismi ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolarnomini oldi.

Butun dunyo qamrabolgan insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi,

yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan birgalikda harakatni talab qiluvchi muammolar global muammolar deyiladi.

Global muammolar aholi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasidir. Global muammolar, birinchidan-jami insoniyatga, barcha mamlakatlar, xalqlar, ijtimoiy tabaqalar manfaatlar va taqdirlariga ta'sir ko'rsatuvchi; ikkinchidan – iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta talafotlarga, inqirozlarga sabab bo'luvchi, chuqurlashgan taqdirda esa jahon sivilizatsiyasining mavjudligiga ham xavf soluvchi; uchinchidan – yechimini topishda umumplanetar miqyosdagi hamkorlikni, barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishni talab etuvchi muammolardir.

Global muammolarning soni taxminan 10 tadan 40-50 tagacha boradi. Lekin shularning ichida asosiy, eng muhim integral muammolarning soni o'ntadan oshmaydi.

Ular quidagilardan iborat:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi;
2. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushning oldini olish muammosi;
3. Ekologik muammo;
4. Demografik muammo;
5. Energetik muammo;
6. Xomashyo muammosi;
7. Oziq-ovqat muammosi;
8. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi;
9. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish global muammolarning eng muhimidir. Mazkur muammoning dolzarligi dunyo siyosiy xaritasida qoloq mamlakatlar soni va salmog'ining kattaligi hamda mavqeyining sezilarli holda oshganligi bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30% ga yaqini qoloq hisoblanadi. Shularning $\frac{3}{4}$ qismi Afrikagada, qolgani Osiyoda joylashgan 18 mamlakatda aholi qashshoq holda yashamoqda. Iqtisodiy qoloqlik

mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Urush va tinchlik muammosi XX asr ikkinchi yarmining deyarli 40 yili mobaynida haqli ravishda insoniyatning eng muhim muammosi bo'lib kelgan. 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda dunyo siyosiy xaritasida bo'lib o'tgan chuqur va miqyosli o'zgarishlar G'arb bilan Sharq o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan global yadro urushi xavfining amalda yo'q bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday holat ushbu xavfni vujudga keltiruvchi mamlakatlar – Rossiya va AQSH hamda NATO davlatlarida harbiy-siyosiy sohada aniq amaliy tadbirlarni hayotga tatbiq etish bilan bog'langandir.

Hozirgi vaqtda global ekologik tizimning degradatsiyalanishi to'g'risida so'z yuritilmoqda. Ushbu jarayonni shartli ravishda uch tarkibiy qismga: 1) ilmiy asoslanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof-muhitning degradatsiyalanishi; 2) atrof-muhitning inson faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishi; 3) atrof-

muhitning ushbu chiqindilar bilan «zaharlanishi»ga bo'lish mumkin.

Demografik muammolar global muammolarning eng muhimi hisoblanadi. Ushbu muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan bog'langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarda aholi va mehnat resurslari soni tez o'smoqda, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past sur'atlarda o'smoqdaki, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi vaqtda energetika va xomashyo muammosi iqtisodiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammoning kun tartibiga birinchi bor chiqishi XX asrning 70 yillarida qayd etildi. 1973-1998 va 2007-yillarda yuz bergan energetika inqirozi va uning oqibatlari hozirgi kungacha sezilmoqda. Energetik inqiroz va undan undan keyin chuqurlashgan xomashyo

muammosi yoqilg'li va xomashyoga bo'lgan talab va taklif nisbati bilangina belgilanmasdan, balki ularni qazib olish sharoitlari, dastavval, kongeologik sharoitlarining murakkablashuvi hamda xomashyo qazib olinayotgan va u birlamchi qayta ishlanayotgan hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi bilan ham bog'langandir.

Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi. Ocharchilik qadimgi davrlarda ham, O'rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insonlarning boshiga tushuvchi eng kulfatlardan biri bo'lgan. Ocharchilik ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shaklida ocharchilik surunkali davom etadi, uning natijasida odamlarning sog'lig'li yomonlashadi, tinkasi quriydi va har hil kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchayadi. Ocharchilikning bu shakli «to'yib ovqat yemaslik» deb ham ataladi. Ikkinchi shaklida ma'lum bir vaqtda yer yuzasining ma'lum bir hududida qurg'oqchilik yoki boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lgan ocharchilik oqibatida millionlab, o'n millionlab insonlar halok bo'ldi.

FAO (Xalqaro oziq-ovqat bilan ta'minlash tashkiloti), Xalqaro sog'liqni saqlash va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra insonning bir kunlik oziq-ovqat normasi 2400-2500 kkal dan past bo'lmasligi lozim. Ba'zi bir mualliflar ushbu ko'rsatkich 2700-2800 kkal ga teng bo'lishi lozim, deb hisoblamodalar. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati, kasb-kori, tabiiy-iqlimiy sharoitlari bilan aloqador tarzda o'zgarishi mumkin. «Ovqatni to'yib yemaslik» holati yuqoridagi norma 1800 kkal dan past tushganda sezila boshlaydi, ocharchilik esa ushbu ko'rsatkich 1000 kkal dan kam bo'lganda kuzatiladi.

FAO ning ma'lumotiga ko'ra, Yer yuzidagi jami aholining 35%i to'yib ovqatlanmagan, 15%i zaruriy miqdordagi kaloriyalarni qabul qilgan, lekin ular oqsilni yetarli tarzda istemol qilmagan. Aholining 20%ini oqsilga bo'lgan talabi qondirilmagan, 30%i surunkasiga ovqatni to'yib yemagan yoki och qolgan. Hozirgi vaqtda ocharchilik 700-800 mln. kishini qamrab olgan 1,2-1,5 mlrd. kishi esa

to'yib ovqat yemayapti. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ocharchilikdan yiliga 13 mln. dan 18 mln. gacha kishi o'lmoqda, shularning $\frac{3}{4}$ qismi bolalarni tashkil etmoqda. Hozirgi kunda ocharchilikka mahkum bo'lgan jami aholidan 200 mln. kishi Afrikaga, 370 mln. kishi Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyoga, 70 mln. kishi Janubiy Amerikaga, 30 mln kishi Yaqin va O'rta Sharq regioniga to'g'ri keladi.

Xulosa.

Insoniyat tarixi davomida uning tabiat bilan bo'lgan munosabati doimo o'zganib, murakkablashib borgan.

Tabiat resurslari chegaralangan bo'lib, unga zarar yetkazmaslik va ulardan me'yorida, ehtiyojga yarasha foydalanish lozim. Agar tabiat resurslaridan me'yoridan ortiqcha foydalanilsa, tabiiy resurslarning qayta tiklanish qobiliyati susayib ketadi va ekologik muvozanat buziladi. Global oziq-ovqat muammosi ham insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammolarni hal etish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqarish, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni belgilash, qishloq xo'jaligi holatini ko'tarish zarur.